ONA TILI DARSLARIDA ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH USULLARI

G`ulomova X.
ChDPU dosenti
Bakiyeva H.
TDPU PhD, dotsent

Tayanch so`zlar: ta'limiy organayzerlar, mantiqiy tafakkur, mantiqiy tahlil, "Klaster", "Venn" diagrammasi, "T" grafik organayzeri, "Jadaval" grafik organayzeri, "Nima uchun? Organayzeri", "Baliq skeleti", "Chalakashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi" organayzeri.

Ключевые слова: образовательные организаторы, логическое мышление, логический анализ, «Кластер», диаграмма «Венна», графический органайзер «Т», «Таблица», «Почему?» органайзер, «Рыбий склет», органайзер «Последовательность запутенных логических цепочек».

Key words: educational organizers, logical thinking, logical analysis, "Cluster", "Venn" diagram, graphic organizer "T", "Table", "Why?" organizer, "Fish cage", organizer "Sequence of entangled logical chains".

Oliy ta`limda ona tili o`qitish metodikasining maqsadi - talabalarni umumiy o`rta ta`limda ona tili fanini o`qitish jarayoniga tayyorlash, ya`ni kasbiy kompetentligini shakllantirishdir. Mazkur fan talabalarni ona tili ta'limining shakli, metod va vositalari bilan tanishtiradi va ularni ta`lim jarayoniga tatbiq etishga tayyorlaydi. Oliy ta`limda o`qitiladigan ona tili o`qitish metodikasi fani fan asoslarini talabaga o`rgatish jarayonini va talabalarning o`rgatilganlarni maktab amaliyotiga tatbiq etish ko`nikmalarini o`z ichiga oladi.

O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda ta'lim organayzerlari muhim o`rin tutadi. O`quvchilarning grammatik tushunchalarni o`zlashtirishlarida, nutqiy qobiliyatini o'stirishda uning fikrlash qobiliyatini ishga solish talab qilinadi. Negaki, nutqni tafakkurdan ajratib rivojlantirish mumkin emas.

Hayotdagi narsa-predmetlarning nomi va ular haqida fikr bildirish uchun o'sha narsa-predmet anglanadi va unga munosabat bildiriladi. O'qituvchi nutq ustida ishlash bilan bir vaqtning o'zida o'quvchilarning tafakkuri ustida ishlaydi, ularda tushunarli, aniq, izchil va asoslangan fikrlashni tarbiyalaydi.

Ona tili darslarida grammatik va orfografik tushunchalarni egallash jarayonida muayyan fikrlash faoliyatining yuz berishi bevosita mantiqiy tafakkur tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Mantiqiy fikrlashning asosiy usullarini ona tili ta’limida grammatik tushunchalarni egallash usuli sifatida qo‘llash mumkin. Grammatik tushuncha va qoidalarni mantiqning analiz va sintez, umumlashtirish, hodisaning o‘xshash va farqli xususiyatlarini aniqlash va taqqoslash, tasniflash va sistemalashtirish usullaridan foydalanmasdan anglab va egallab bo‘lmaydi.

Mantiqiy fikrlashning dastlabki usuli tahlil. Til ta’limida tahlil bilan sintez chambarchas bog’langan bo’lsa-da, mashq matnlari tahlili asosida o’zlashtiriladigan bilimlarni umumlashtirish o’quvchilar uchun ancha qiyinchilik tug’diradi. Sintez ta’lim amaliyotida kam uchraydi. Chunki mantiqiy tahlil, odatda, alohida emas, balki boshqa o’quv-biluv faoliyatining (umumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, xulosalarni shakllantirish) tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi. Tahlil va sintezning birlashtirilishi tushunchalarni ta’riflashda asos bo’lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda ona tili o`qitish ta`limida qo`llab kelayotgan ta`limiy organayzerlar o`quvchilarni mantiqiy va mustaqil fikrlashga undaydi, tahlil qilish va tarkiblash ko`nikmalarini o`stiradi, mavzuga doir ma`lumotlarni ongli o`zlashtirishlarini ta`minlaydi, xotirada saqlab qolishlariga yordam beradi. Organayzerlar o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini tizimlashtiradi, sistemaga soladi. O`quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Organayzerlar tarmoqlashning bir turi, unda ochiq qolgan o`rinlar to`ldiriladi. Organayzerlarda birlamchi ma`lumotlarning ham, ikkilamchi ma`lumotlarning o`rni ham ochiq qoldirilishi mumkin. O`quvchi ochiq qolgan o`rinni to`ldiradi. O`quvchilar yozgan ma`lumotlarining to`g`riligini muhokama jarayonida yoki o`qituvchining ko`rsatgan slaydlar orqali aniqlab olishishadi. Masalan, “Klaster”, “Venn” diagrammasi, “T” grafik organayzeri kabilar. O`quvchi topshiriq asosida ochiq qolgan qismni to`ldiradi. Ochiq qogan joyning ma`lumotini topib to`ldirishda o`qituvchi tomonidan berilgan ma`lumot yordam beradi.

Ona tili darsliklarida berilgan chizmalarda ma`lumotlar to`liq yozib qo`yiladi. Bunday grafik organayzerlar fikriy jarayonlarni ko`rgazmali taqdim etuvchi ta`lim vositasi sifatida xizmat qiladi. Organayzerlarni til hodisasini tushuntirishga, tasniflashga, umumlashtirishga, o`quvchilarning bilimini mustahkamlash va nazorat qilishga ko`ra tasniflash mumkin.

Ona tili darslarida quyidagi kabi o`rganayzerlardan foydalaniladi:

Ma`lumotlarni tarkiblash va tarkibiy qismlarga bo`lib chiqish, o`rganilayotgan tushunchalar o`rtasidagi aloqa va o`zaro bog`liqlikni o`rnatishga doir o`rganayzerlar: klaster, toifalash, insert, B/B/B.

Ma`lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslashga doir o`rganayzerlar: “T” –jadvali, Venn diagrammasi.

Ma`lumotlarni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish, rejalashtirishga doir o`rganayzerlar: Baliq skleti, piramida, nilufar guli sxemalari, ierarxik diagrammasi, “Kaskad” tarkibiy – mantiqiy sxema.

Mavzu yuzasidan o`quvchilarning bilimlarini amaliyotga tatbiq etish ko`nikmalarini aniqlashda foydalaniladigan organayzerlarda ma`lumotlar uchun ochiq joylar qoldiriladi. O`quvchi qaysi tarmoq ochiq bo`lsa o`sha joyning ma`lumotini to`ldiradi. Bunda o`quvchilar o`qituvchi tomonidan yozilgan yo`llanmalar (topshiriqlar) asosida faoliyat olib boradi. Bu vazifalarni o`quvchilar yakka tartibda yoki guruh bo`lib bajaradilar. Masalan, so`zning morfemik tarkibi yuzasidan o`quvchilarning o`zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash maqsadida professor A.G`ulomov , dotsent R. Ikromova, M.Hamroyevlar quyidagi “Jadval” grafik organayzerlarini tavsiya etgan:

№	So`zlar	Asos	So`z yasovchi morf.	Shakl yasovchi morfema	
1	*Vatandoshlarimizning*	*Vatan*	*-dosh*	Lug`aviy sh.yas.	Sintaktik sh.yas.
				-lar	*-imiz* *-ning*
2	…				

(A.G`ulomov)

Vatandoshlarimizning	vatan	-dosh	-lar	-imiz	ning
asos					

(R.Ikromova.)

M.Hamroyev ona tilidan amaliy mashg`ulotlar uchun tilshunoslikning barcha bo`limlari yuzasidan tahlil qoliplarini ishlab chiqan . Ular talabalarni mustaqil ishlashga yo`llaydi, vaqtni tejaydi, har bir talabani baholash imkoniyatini beradi. Bu organayzerlardan ham maktabda to`liq foydalanish mumkin.

Izlanishga asoslangan **“Jadaval” grafik organayzerini** sintaksisni o`rgatish jarayonida qo`llash tayanch tushunchani, uning muhim xususiyatlarini ifodalash orqali mavzuning muhim tomonlarini o`zlashtirishni ta`minlaydi. Masalan, talaba 2-grafaga berilgan qolipga mos gap tuzib yozadi, ergash gapli qo`shma gap haqidagi tushunchalarni 1-grafaga, shu gap ta`lifni 3-grafaga yozadi. Bu organayzer asosida o`quvchilarni mustaqil izlanish asosida xulosalar – ta`rif chiqarishga o`rgatadi.

Tushuncha	Formula	Ta`rif
(o`quvchi to`ldiradi)	-gach,	

Ko`makchilarning vazifasi va ular ifodalaydigan racticin ma`nolarni formula asosida gap tuzish va uning tahlili orqali aniqlaydilar. Ko`makchilarning racticin vazifasi va racticin ma`nosini yozib, unga ta`rif beradilar.

Ta`limiy organayzerlarning ochiq qolgan bo`lagini yakka, guruh-gurug bo`lib to`ldiriladi. Jamoaviy bo`lib bajarilgan ishni guruhlar o`zaro nazoratdan o`tkazadi va taqdimotga chiqadi. Yo`l qo`yilgan xato va kamchiliklar rangli bo`r yoki rangli qalamlar yordamida to`g`rilanadi. O`qituvchi o`quvchilar faoliyatini nazorat qilib boradi.

**Ierarxik (klasterlash) o`rganayzer** funksional tashkiliy tuzilma bo`lib, uni ona tilini o`qitishga tatbiqi talabalarni mantiqiy fikrlashga undaydi, maktabda ona tilini o`qitishda bo`limlararo bog`liqlikka asoslanishlariga turtki beradi. Masalan, ona tili bo`limlari orasidagi bog`lanish:

Fonetik tushuncha------ orfografiya bilan (ong+la --- angla)

Fonetik tushuncha------sintaksis bilan (ohang, to`xtam)

Fonetik tushuncha ------orfoepiya bilan (to`g`ri talaffuz)

Fonetik tushuncha----- leksikologiya (so`z ma`nosini farqlaydi) va hokazo.

Grammaik hodisalarni taqqoslash orqali umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlashtirishda **qismlari kesishgan organayzerlardan** foydalaniladi. Bunga Venn diagrammasini misol qilib keltirish mumkin.

“Venn diagrammasi” organayzeri (metod) ikki va uch hodisaning ayrim hamda umumiy xususiyatlarini solishtirish, taqqoslash, qarama-qarshi qo`yish orqali yoritish va umumlshtirish, xulosalash imkoniyatiga ega. O`qituvchining mavzuni tushuntirishida mazkur organayzer o`quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini, taqqoslash, tahlil qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi.

Venn diagrammasi asosida mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimi nazorat qilinishi ham mumkin. Bunda har bir to`g`ri fikrga qo`yiladigan ball oldindan belgilab olinadi. Topshiriq bo`yicha har bir guruh fikrlarini alohida ranglarda yozadi, shuningdek, har bir o`quvchi ham fikrini alohida rangda yozishi mumkin. Bu har bir guruh yoki o`quvchi o`zining fikrini himoya qilish imkonini beradi. Masalan: doskaga ikki yoki uch qismdan iborat diagramma chiziladi, ular ichiga racticin hodisa nomi yoziladi. Doskaga taqqoslanayotgan hodisalarning umumiy va xususiy belgilari raqamlar ostida yozilgan ma`lumotlar ilinadi. Har bir guruh tanlagan raqamlarini doiralar ichiga yozadi. Fikrlar nihoyasiga yetgach, o`qituvchi va talabalar hamkorligida to`g`ri va noto`g`ri javoblar aniqlanadi.

To`g`ri javobga 3 ball qo`yilgan bo`lsa, noto`g`ri javob uchun 3 ball olib tashlanadi.

Venn diagrammasini quyidagi mavzularda qo`llash mumkin:

1. Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi mavzusini o`rgatish va nazorat qilishda.
2. Sifat va ravish so`z turkumlarini qiyoslash orqali farqlashga o`rgatishda.
3. Ot va harakat nomining leksik va racticin belgilarini qiyoslashda.
4. Son, so`roq olmoshi va miqdor ravishlarini qiyoslash orqali farqlashga o`rgatishda va hokazo.

T – grafik organayzeri yutug`i vaqtni tejashga, yakka tarbibda o`quvchi bilimini aniqlashga, fikrlash qobilyatini oshirishga, mavzuni qaysi qismini o`zlashtirgan yoki o`zlashtirmaganini aniqlashda qo`l keladi. Salbiy jihati shundagi, o`quvchi nutqining rivojlantirmaydi, muloqotga kirishish imkoniyati bo`lmaydi. Biroq yozma ifodalarni misollar bilan og`zaki to`ldirishi mumkin. Masalan, bir xil mavzudagi voqealarning (matnning) bayon qilish uslubidagi farqlarni yoritishda qiyosan yondashish imkonini beradi. Masalan: o`quvchiga publisistik va ilmiy uslubdagi matn beriladi. O`quvchilar matn tahlili orqali matnni qaysi uslubdaligini asoslaydi.

”Nima uchun?“ organayzeri. Bu organayzer o`quvchilar o`zlashtirgan o`zaro yaqin nazariy bilim, ma`lumotlarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi, nutqiy jarayonda o`rinli foydalanish ko`nikmasini shakllantiradi. Masalan, miqdor bildiruvchi so`zlar (son, miqdor-daraja ravishlari, miqdorga ishora qiluvchi olmoshlar), yordamchi so`z turkumlari (bog`lovchi, ko`makchi va yuklamalarning bog`lash vazifasi hamda racticin ma`nosini qiyoslab o`rgatishda) yuzasidan tashkil etish mumkin. Bunda o`quvchilarni erkin fikrlashga va dadil harakatga yo`llash uchun quyidagi maslahatlar beriladi:

1. Aqlingizga nima kelsa shuni yozing.
2. Yozishda imlo va uslubiy xatolardan cho`chimasdan yozing.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to`xtatmang. Xayolingizga boshqa g`oyalar kelmaguncha qog`ozga rasm chizib turing.

Masalan, *qancha, necha* olmoshlari ifodalagan miqdor ma`nosini son ifodalagan miqdor ma`nosidagi farq va oxshashlikni, ular birga qo`llanadigan so`zlarni, gapdagi vazifasini (*necha ractici – o`n ractici; nechta o`quvchi – o`nta o`quvchi* – aniqlovchi) qiyosan tahlil qilish bilan bog`liq fikrlarini, ularning hayotiy masalalar bilan bog`lashi (sonlarlar ichida sehrli sonlar borligi), qaysi matnlarda (ertaklarda, dostonlarda) ko`p qo`llanishi sababini (3, 7, 20, 40, 90 marosimning nomini ifodalashi), voqealarni bo`rttirib ko`rsatish maqsadida ishlatilishini (*3 kecha-yu 3 kunduz yo`l yurdi.* (Orada o`quvchi Uch og`a-ini botirlar rasmini chizishi mumkin…).

”Baliq skeleti” organayzeri. Muammoni qo`yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta’riflash va yechib ko`rishga imkon beradi. Bir

varaq oq qog`ozda (vatmanga) baliq skeleti (boshi, kemirchagi, qovurg`alari) chiziladi .

Yuqoridagi qovurg`alarga muammolar yoziladi, pastidagi qovurg`alariga esa uyqoridagi muammoning mavjudligini yoki uni hal qilish yo`llari, (o`qituvchi o`z oldiga qo`ygan maqsadga qarab) isbotlovchi dalillar yoziladi.

Baliq skeleti modelining afzalligi shundaki, mazkur sxema muammolarning o`zaro bog`liqligi, ularning barcha xususiyatlarini o`zida aks ettiradi. Masalan:

Baliq skletining bosh qismiga: “Fonetika bo`limini o`rganish uchun zarurat bormi?

Yuqoridagi qovurg`aga:

1-qovurg`a: Nutq o`rganlarini fonetika bo`limida o`rganishga insonda qanday ehtiyoj bo`lishi mumkin?

2-qovurg`a: Nutqiy bo`laklarni o`rganish so`zlovchiga “yordam beradi, yo`q, yordam bermaydi” deb ikki xil qarash asoslimi?

3-qovurg`a: Urg`uning fonetikada o`rganilishi qanday asosga ega?

4-qovurg`a: Unlilarning lablanish yoki lablanmasligi, hosil bo`lish usuliga ko`ra tasnifi, o`rniga ko`ra old qator va orqa qator tasniflashga qanday munsabatdasiz? Har ikkisi ham usul yoki o`rniga bog`liq emasmi?

5-qovurg`a: Undosh tovushlarni jarangli va jarangsiz tarzida tasniflashda nimaga asoslanish eng to`g`ri yondashuv bo`ladi?

6-qovurg`a: Urg`u tilshunoslikning qaysi bo`limining o`rganish ob`yekti bo`lishi kerak?

Sxemali va rasmli organayzerlardan matn yaratishda foydalaniladi. Tilshunoslikka oid atamalar mavhum tushunchalarni ifoda etishini hisobga olgan holda mualliflar ona tili darsliklarida bunday organayzerlardan foydalanadilar.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Гармони. –Т.: 2022.

2. Umumiy o`rta ta`limning MO`D. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida ona tili fanini o`qitishni rivojlantirish konsepsiyasi. –T.: 2020.

3. О.У.Авлаев, С.Н.Жўраева, С.Р.Мирзаева. Таълим методлари. –Т.: Наврўз нашриёти. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. 2017.

4. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o‘qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatishda ta’limiy organayzerlarining o`rni va uni ishlab chiqishga qo`yiladigan talablar, tashkil etish usullari xususida so`z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается рол организаторов образования в обучении учащихся логическому мышлению, требования к его развитию и методы организации.

SUMMARY

This article discusses the role of educational organizers in teaching students to think logically, the requirements for its development, and methods of organization.